DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-07-21 Pages: 210-220

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

THE ROLE OF SIMILES AND EPITHETS IN EXPRESSING IRONY IN ABDULLA QAHHOR'S WORKS

Marufjon Farkhodovich Zayniddinov
Lecturer, Samarkand State Institute of Foreign Languages
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Abdulla Qahhor, irony, simile, epithet, standard of comparison, the -day suffix, sarcasm, linguopoetics.

Received: 07.11.2026
Accepted: 08.11.2026
Published: 09.11.2026

Abstract: The article examines how similes and epithets work together to create irony in the prose, drama and feuilletons of Abdulla Qahhor. The material includes passages from the novels "Sarob" and "Qo'shchinor chiroqlari", the novella "Sinchalak", several short stories, comedies and feuilletons. Linguopoetic and contextual analysis is applied to similes formed mainly with the suffix -day (-dek). Each simile is broken down into subject, standard of comparison, ground and the epithet that qualifies the standard. The study shows that Qahhor rarely uses traditional animal, plant or object standards in their fixed form: he reworks them with a qualifying word that fits the situation. The same standard (hen, chick, rooster) produces friendly humour, irony or sarcasm depending on the speaker, the degree of mismatch between subject and standard, and the epithet. Three functions of the epithet are identified: narrowing the ground, adding evaluation and producing reversed meaning. A typology of standards by type of laughter and a model of simile–epithet interaction are proposed.

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA KINOYA IFODASIDA O'XSHATISH VA EPITETLARNING O'RNI

Ma'rufjon Farxodovich Zayniddinov
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, kinoya, o‘xshatish, epitet, o‘xshatish etaloni, -day affiksi, sarkazm, lingvopoetika.

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Qahhorning nasriy, dramatik asarlari va felyetonlarida o‘xshatish va epitetning kinoya yaratishdagi hamkorligi tahlil qilinadi. Material sifatida “Sarob”, “Qo‘shchinor chiroqlari” romanlari, “Sinchalak” qissasi, bir qator hikoya, komediya va felyetonlardan parchalar olingan. Asosan -day (-dek) affiksi bilan hosil qilingan o‘xshatishlar lingvopoetik va kontekstual tahlil qilinib, har birida subyekt, etalon, o‘xshatish asosi va etalonni aniqlovchi epitet ajratilgan. Tadqiqot adib an’anaviy hayvon, o‘simlik va buyum etalonlarini tayyor holda kamdan-kam qo‘llashini, ularni vaziyatga mos aniqlovchi so‘z bilan qayta ishlashini ko‘rsatdi. Bir xil etalon (tovuq, jo‘ja, xo‘roz) nutq egasi, subyekt va etalon o‘rtasidagi nomuvofiqlik darajasi hamda epitetga qarab beg‘araz hazil, kinoya yoki sarkazm beradi. Epitetning uch vazifasi aniqlandi: o‘xshatish asosini toraytirish, baho qo‘shish va teskari ma’no hosil qilish. Etalonlarning kulgi turiga ko‘ra tasnifi va o‘xshatish bilan epitet hamkorligining modeli taklif etilgan.

РОЛЬ СРАВНЕНИЙ И ЭПИТЕТОВ В ВЫРАЖЕНИИ ИРОНИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АБДУЛЛЫ КАХХАРА

Маъруфжон Фарходович Зайниддинов
преподаватель Самаркандского государственного института иностранных языков
доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Абдулла Каххар, ирония, сравнение, эпитет, эталон сравнения, аффикс -day, сарказм, лингвопоэтика.

Аннотация: В статье рассматривается взаимодействие сравнения и эпитета при создании иронии в прозе, драматургии и фельетонах Абдуллы Каххара. Материалом послужили фрагменты романов «Мираж» («Сароб») и «Огни Кошчинара», повести «Птичка-невеличка» («Синчалак»), а также ряда рассказов, комедий и фельетонов. С помощью лингвопоэтического и контекстуального анализа изучены сравнения, образованные преимущественно аффиксом -day (-dek); в каждом выделены субъект, эталон, основание сравнения и определяющий эталон эпитет. Показано, что писатель редко использует

традиционные эталоны из мира животных, растений и предметов в готовом виде: он перерабатывает их, добавляя определение, соответствующее ситуации. Один и тот же эталон (курица, цыплёнок, петух) даёт добродушный юмор, иронию или сарказм в зависимости от говорящего, степени несоответствия субъекта и эталона и эпитета. Выделены три функции эпитета: сужение основания сравнения, введение оценки и создание обратного смысла. Предложены типология эталонов по виду смеха и модель взаимодействия сравнения и эпитета.

Kirish. Abdulla Qahhor o‘zbek nasrida kulgining turli ko‘rinishlarini – beg‘araz hazildan achchiq satiragacha – teng darajada ishlata olgan adib sifatida tanilgan. Uning hikoya, qissa, roman, komediya va felyetonlarida kinoya ko‘pincha bitta qisqa tasviriy birlik ichida yuzaga chiqadi: qahramon biror hayvonga, buyumga yoki belgiga qiyoslanadi, qiyos esa sifatlovchi so‘z bilan aniqlashtiriladi. Shu sababli adib uslubini o‘rganishda o‘xshatish va epitetni alohida emas, bir-biriga bog‘liq holda ko‘rish lozim bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishning leksik-grammatik vositalari, tuzilishi va milliy-madaniy xususiyatlari yetarlicha o‘rganilgan, hatto o‘xshatishlarning izohli lug‘ati ham yaratilgan [1]. Ammo muayyan adib asarlarida o‘xshatish va epitetning kinoya hosil qilishdagi hamkorligi, ya’ni qaysi etalon qanday sifatlovchi bilan birga kelganda kulgi masxaraga, qaysi holatda samimiy hazilga aylanishi kam tahlil qilingan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulla Qahhor asarlaridan olingan misollar asosida kinoya ifodasida o‘xshatish va epitetning o‘rnini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda quyidagi savollarga javob izlandi: 1) adib qaysi o‘xshatish vositalari va etalon guruhlariga ko‘proq tayanadi; 2) bir xil etalon (masalan, tovuq yoki mushuk) qachon kinoya, qachon beg‘araz kulgi uchun xizmat qiladi; 3) epitet o‘xshatish ichida qanday vazifani bajaradi. Maqolaning yangiligi shundaki, unda an’anaviy etalonlarning adib qalamida qayta ishlanishi kulgi turiga ko‘ra tasniflanadi va o‘xshatish bilan epitet hamkorligining namunaviy modeli taklif etiladi.

Adabiyotlar sharhi. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatish dastlab stilistika doirasida o‘rganilgan. R. Qo‘ng‘urov o‘xshatishni tilning tasviriy vositalari tizimida ko‘rib, uni ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik obyekti deb hisoblaydi: o‘xshatishning ifodalanish usullari va tuzilishi gap tarkibiy qismi sifatida til fakti bo‘lib qoladi [2: 41; 3]. M. Mukarramov o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni maxsus monografiyada tavsiflagan [4]. S. Karimov badiiy uslub va tilning ifoda-tasvir vositalarini bir tizimda ko‘rgan [5], M. Yo‘ldoshev esa badiiy matnni lingvopoetik tahlil

qilish tamoyillarini ishlab chiqqan [6]. Keyingi yillarda o‘xshatishning she’riy san’atlar bilan aloqasi [7] va lingvomadaniy jihatlari [8] dissertatsiya darajasida tadqiq etildi. N. Mahmudovning o‘xshatishlar lug‘atiga muqaddima sifatida berilgan maqolasida o‘xshatish milliy obrazli tafakkur mahsuli sifatida talqin qilinadi [1].

Jahon tilshunosligida o‘xshatishning she’riy va she’riy bo‘lmagan turlari D. Fishelov tomonidan tuzilish, semantika va ritorika nuqtayi nazaridan farqlangan [9]. M. Isroil, J. Harding va V. Tobin o‘xshatishni o‘quvchiga tayyor xulosani emas, qiyoslash yo‘nalishini beradigan konstruksiya sifatida ko‘radi [10]. Kinoya nazariyasida U. But kinoyani o‘quvchi “qayta qurishi” kerak bo‘lgan yashirin ma’no deb ta’riflagan [11], L. Hatchen esa kinoyaning baholovchi, “o‘tkir qirrali” tabiatiga e’tibor qaratgan [12]. R. Gibbs kundalik nutqdagi kinoyaning turlari va vazifalarini tahlil qilgan [13]. T. Veyl va Yu. Hao ingliz tilidagi “as … as” qurilmalari orasida kinoyali o‘xshatishlar salmoqli o‘rin tutishini ko‘rsatgan [14]. Bu kuzatish o‘xshatish va kinoya o‘rtasidagi aloqa tasodifiy emasligini tasdiqlaydi.

Maqolada qo‘llangan atamalarga aniqlik kiritish lozim. Kinoya deganda so‘zlovchi aytilgan so‘zning to‘g‘ri ma’nosidan farq qiladigan, ko‘pincha unga zid bo‘lgan bahoni yashirin tarzda ifodalashi tushuniladi; bunda o‘quvchi yashirin ma’noni kontekstdan tiklaydi [11]. Sarkazm kinoyaning eng achchiq, ochiq nafrat bilan yo‘g‘rilgan darajasidir. Beg‘araz hazil esa kulgi obyektiga nisbatan xayrixohlikni saqlaydi. Epitet deganda predmetning belgisini obrazli tarzda aniqlovchi so‘z yoki birikma nazarda tutiladi. O‘xshatish tarkibida epitet ko‘pincha etalonni aniqlaydi (“cho‘chigan tovuqday”), ba’zan esa subyektga taalluqli bo‘ladi (“yo‘g‘on gavdasiga”). Mazkur ishda har ikki holat ham hisobga olindi, chunki kinoya aynan shu ikki aniqlovchi o‘rtasidagi munosabatdan tug‘ilishi mumkin.

Abdulla Qahhor tili S. Karimov, A. Qarshiyev va G. Isroilova tuzgan maxsus lug‘atda qayd etilgan [15]. Adib shaxsiyati va nutqidagi kinoyaga oid xotiralar O. Sharafiddinov asarlarida uchraydi [16]. Shunga qaramay, o‘xshatish va epitetning kinoya yaratishdagi o‘zaro munosabati adib ijodi misolida alohida o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Material sifatida Abdulla Qahhorning “Sarob”, “Qo‘shchinor chiroqlari” romanlari, “Sinchalak” qissasi, “Ig‘vogar”, “Ikki yorti – bir butun”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Muhabbat” hikoyalari, “Og‘riq tishlar”, “Ayajonlarim” komediyalari, “Hi-hi...”, “Ikkining biri” felyetonlaridan olingan parchalar tanlandi. Misollardan keyin qavs ichida asar nomi hamda adib asarlari to‘plamining jildi va sahifasi ko‘rsatiladi (masalan, 2:115). Ish hajmini hisobga olib, asosan -day (-dek) affiksi yordamida hosil bo‘lgan va kinoya bilan bog‘liq o‘xshatishlar tahlilga tortildi.

Tahlilda lingvopoetik va kontekstual tahlil, qiyosiy-tipologik usul hamda introspektiv yondashuv qo‘llandi. Introspektiv yondashuv til faktlarini tadqiqotchining ona tili sezgisi asosida

baholashni, so‘ng ularni adib uslubi bilan bog‘lashni nazarda tutadi [8: 14–15]. Har bir o‘xshatishda to‘rt unsur ajratildi: o‘xshatish subyekti (qahramon), etalon, o‘xshatish asosi (umumiy belgi) va etalonni aniqlovchi epitet. So‘ngra parcha kontekstida yuzaga kelgan kulgi turi (hazil, kinoya, sarkazm) va muallifning qahramonga munosabati baholandi. Tadqiqot statistik xulosa chiqarishni maqsad qilmaydi, uning natijalari tanlangan parchalar doirasida amal qiladi.

Tahlil va natijalar. *O‘xshatish vositalari.* Ilmiy adabiyotlarda bamisoli, go‘yo, kabi, misli, misoli, singari, teng, o‘xshash, xuddi, yanglig‘, qadar kabi leksik hamda -day (-dek), -simon, -ona, -namo, -larcha, -omuz, -cha, -chasiga kabi grammatik vositalar o‘xshatish hosil qilishi qayd etilgan [3: 34–80]. Abdulla Qahhor asarlari tili lug‘ati ma’lumotlariga ko‘ra, adib matnlarida leksik vositalardan xuddi, singari, go‘yo, kabi, grammatik vositalardan esa -day affiksi eng faol qo‘llangan; -day ayniqsa shunday, bunday, qanday, o‘shanday kabi olmoshlar tarkibida ko‘p uchraydi [15]. Kinoyali o‘xshatishlarning aksariyati ot + -day qolipida qurilgani shu bilan izohlanadi: bu qolip qisqa, og‘zaki nutqqa yaqin va etalonni darhol sifatlovchi so‘z bilan kengaytirishga imkon beradi.

An’anaviy etalonning qayta ishlanishi. Dastlab adib o‘xshatishlarini an’anaviy va ijodkorning o‘zi yaratgan o‘xshatishlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq ko‘ringan edi. Ammo matnlar Abdulla Qahhor an’anaviy etalonlarga ham aksariyat hollarda ijodiy yondashganini ko‘rsatdi. Xalq nutqida inson befarosatlikda eshakka, ayyorlikda tulkiga, yuvoshlikda qo‘yga, beozorlikda musichaga, mehnatkashlikda asalariga, kuchlilikda arslonga qiyoslanadi va bu qiyoslar turg‘un birikma sifatida qabul qilinadi. Adib matnlarida ham mushuk, sichqon, ot, it, eshak, sigir, qo‘y, tovuq, xo‘roz, jo‘ja, musicha, arslon, ari, bo‘ri, cho‘chqa, bit, bedana singari etalonlar uchraydi. Biroq ular deyarli hech qachon “qo‘yday yuvosh” kabi tayyor holda qo‘llanmaydi: etalon vaziyatni aniqlovchi so‘z bilan to‘ldiriladi va shu orqali yangi ma’no oladi.

Mushuk etalonli o‘xshatishlar bunga yaxshi misol bo‘ladi: go‘sht o‘g‘irlab yegan mushukday (“Sarob”, 1:150), mushukchaday mayin xurrak otmoq (“Nurli cho‘qqilar”, 2:356), shisha ichidagi go‘sht atrofida miyovlab jonini halak qilgan mushukbola singari (“Sarob”, 1:55), o‘lim xavfida qolgan mushukday (“Qo‘shchinor chiroqlari”, 2:162, 181). Bu birikmalarning hammasi ham kinoya uchun qo‘llanmagan, lekin har birida emotsional-ekspressiv bo‘yoq bor: ular ifodaga muloyimlik yoki ojizlik ottenkasini olib kiradi.

Kinoya etalon bilan subyekt o‘rtasida nomuvofiqlik paydo bo‘lganda kuchayadi. “Qo‘shchinor chiroqlari”dagi Abdusamad qori tasvirida shunday holat bor: *Abdusamad qori yo‘g‘on gavdasiga nomunosib tarzda mushukday muloyim qadam bosib stol yoniga keldi, qo‘lidagi tugunchani stolga qo‘ydi-da, Sidiqjonga qarab ko‘zlari olayib ketdi* (2:115). Bu yerda “yo‘g‘on gavda – mushukday muloyim qadam” zidligi kulgi uyg‘otadi. Ammo bu beg‘araz kulgi

emas: “nomunosib tarzda” degan muallif izohi va “ko‘zlari olayib ketdi” tafsiloti qorining tashqi muloyimligi ostidagi adovatni ochadi. Voqealar rivojida qorining kulishi ham buyumga qiyoslanadi: *Qori kaftini og‘ziga qo‘yib, xuddi ag‘darilgan shishaday, kul-kullab kuldi* (2:130). “Ag‘darilgan” sifatdoshi etalonga tovush va harakat beradi, natijada kulgi samimiy emas, mexanik va soxta bo‘lib ko‘rinadi.

Bir etalon – turli kulgi. Tovuq etaloni adib asarlarida kulgining uch xil darajasini beradi. “Hi-hi...” felyetonida urush yillaridagi kichik bir amal egasi tasvirlanadi. U qo‘lida chaqaloq ko‘targan ayolning iltimosiga parvo qilmay ovqatlanadi: *Bu odam shoshmasdan tuxumni archidi, hafsala bilan tuz sepib og‘ziga soldi, uzoq chaynadi, tovuqday bo‘ynini cho‘zib yutdi-da, ketidan choy ho‘plar ekan, imo bilan devordagi soatni ko‘rsatdi* (4:288). Odam harakatining tovuqqa qiyoslanishi qahramonga nisbatan nafratli kulgi uyg‘otadi, bu esa sarkazmga yaqin.

“Ig‘vogar” hikoyasida tovuq boshqa toifadagi kimsani – ig‘vogarni fosh etadi: *xuddi cho‘chigan tovuqday boshini silkib-silkib, atrofga qaraydi, xavf yo‘qligidan tinchish o‘rniga hayron bo‘ladi, ko‘proq xavotirga tushadi* (2:327). Bu yerda “cho‘chigan” epiteti o‘xshatish asosini aniq belgilaydi: gap tovuqning umumiy qiyofasida emas, uning qo‘rquvdagi bir lahzalik harakatida. Epitet kinoyaning nishonini toraytiradi va uni psixologik tavsifga aylantiradi.

Ayni etalon “Qo‘shchinor chiroqlari”da kinoyasiz, mehnatkash odamlar o‘rtasidagi hazilda keladi: *– Ko‘raman kirmaganingni, – dedi Bo‘taboy otlanayotib, – shu qilganingga senimi... boshim omon bo‘lsa tovuqday qiyqillatib olib kiraman!* (2:63); *– Nima qilasan esimga solib? Kolxozga kirmayman deb men xato qilgan ekanman, tovuqday qiyqillatib olib kiraman deb sen ham xato qilgan ekansan* (2:159). “Og‘riq tishlar” komediyasida esa shu ibora qonunning kuchini ifodalaydi: *Zuhra. Qonun tovuqday qiyqillatib olib beradi!* (4:124). Bedana etalonida ham xalqona beg‘araz kulgi seziladi: *Nega qochgan bedanaday pisib chirqillaysan* (“Qo‘shchinor chiroqlari”, 2:41). Demak, etalonning o‘zi kulgi turini belgilamaydi; uni kontekst, nutq egasi va etalonni aniqlovchi so‘z belgilaydi.

Sarkazmga yaqin o‘xshatishlar. Odamning cho‘chqa va bitga qiyoslanishida achchiq zaharxanda seziladi. “Qo‘shchinor chiroqlari”da kolxozga kirish niyatida yurgan Sidiqjon qaynotasi Zunnunxo‘jaga shunday deydi: *– Odam dunyoga cho‘chqaday semirishu, bitday bolalash uchun kelmaydi* (2:12). Maqolga yaqin bu qurilmada ikki etalon yonma-yon turadi va har biri bitta fe’l bilan aniqlanadi. Ibora Sidiqjonning ongi o‘sib borayotganini va Zunnunxo‘jaga xos turmush tarziga munosabatini birdaniga ko‘rsatadi. “Ikkining biri” felyetonida bit etaloni fashist askariga nisbatan qo‘llanadi: *yo evini qilolsa, och bitday abjirlik bilan ro‘para kelgan teshikka o‘zini uradi* (4:291). “Och” epiteti etalonga ochko‘zlik va betoqatlik belgisini qo‘shadi, natijada o‘xshatish sarkazmga aylanadi.

Ijobiy qahramon va kinoyaning chegarasi. Jo‘ja va xo‘roz etalonlari ijobiy qahramon tasvirida samimiy kulgi beradi: *O‘rmonjonga uchrashmasdan burun, sordan qochgan jo‘jaday boshini qayerga tiqishini bilmay qolgan Sidiqjon endi dakang xo‘rozday mag‘rur qadam tashlab borar edi* (“Qo‘shchinor chiroqlari”, 2:169). Ikki o‘xshatish qahramonning o‘zgarishini qisqa yo‘l bilan ko‘rsatadi, “sordan qochgan” va “dakang” aniqlovchilari esa shu o‘zgarishning ikki qutbini belgilaydi. “Ayajonlarim” komediyasida xo‘roz kinoya vositasiga aylanadi. Bu yerda ham, “Nutq” hikoyasidagi kabi, tayyor matnni o‘qiydigan notiq ustidan kulinadi: *Jamol. Iye, surma ichgan xo‘rozday bo‘ynimni gajak qilib og‘zimni ochamanu, tovushim chiqmaydi, deng!* (4:210). “Surma ichgan” aniqlovchisi ovozi yo‘qolgan xo‘roz obrazini yaratadi va notiqning o‘z gapiga ega emasligini masxara qiladi.

“Sinchalak” qissasida Qalandarov Saidani dastlab sinchalakka, so‘ng jo‘jaga o‘xshatadi: *stansiyada tuxumdan yangi chiqqan oppoqqina, beozor jo‘jaday chirqillaganiga qoyil qolish kerak!* (3:112–113). Bu yerda epitetlar zanjiri (“tuxumdan yangi chiqqan”, “oppoqqina”, “beozor”) etalonni ataylab erkalovchi ruhda bezaydi. Lekin bu so‘zlar Saidadan alami bor qahramon xayolidan o‘tadi, shuning uchun erkalovchi shakl teskari ma’no oladi: maqtov ko‘rinishidagi kinoya nafratga aylanadi. Qalandarovning keyingi o‘ylarida “osmonni ko‘targulik kuch” iborasi “osmonni ko‘targulik ayyorlik”ka almashadi. Kinoyaning epitet orqali teskari baholashga aylanishi aynan shu parchada yaqqol ko‘rinadi.

Portret kinoyasi. “Sarob” romanida domla Murodxo‘ja shunday tasvirlanadi: *Uning mo‘ylovga o‘xshagan qoshlari ko‘zining ustiga tushib turar, kichkina doppisi qoplay olmagan tepakal boshi hozirgina pardozlangan sariq etikning tumshug‘iday yaltirar edi. Domla harakatda ayiq, yurishda o‘rdakni xotirlatardi* (1:79–80). Bu portretda epitetlar (“kichkina doppi”, “tepakal bosh”, “hozirgina pardozlangan sariq etik”) va o‘xshatishlar bir-birini kuchaytiradi. Muallif o‘xshatishni sharhlab ham beradi: *O‘rdakning uch xislati bor: havoda uchadi, yerda yuradi, suvda yuzadi. Domla maktabda – muallim, qishloqda – yer egasi, mehmonxonasida, garchi oshkora bo‘lmasa ham, savdogar* (1:80). Kinoya bu yerda o‘xshatish asosini kengaytirib, tashqi qiyofadan ijtimoiy mavqega o‘tkazish orqali yuzaga keladi. Adib keyinchalik “Sinchalak”dagi Eshon obrazida ham shu usulni qo‘llaydi.

Flora va buyum etalonlari. Adib matnlarida kinoya uchun o‘simlik dunyosidan olingan etalonlar kamroq uchraydi, ammo ular o‘ziga xos. “Kampirlar sim qoqdi” hikoyasida kampir yuzi olmaga o‘xshatiladi. Yuzni olmaga qiyoslash nutqda yangilik emas, lekin etalon sifatida sho‘rvada pishgan olmaning tanlanishi kutilmagan topilma: *Nazirbuvi sandalning chetida, derazadan tushib turgan erta bahor oftobiga sho‘rvada pishgan olmadek yuzini tovlab, to‘ygan qo‘zichoqday uxlab yotar edi; bu tovush qulog‘iga kirib, xuddi pashsha qo‘riganday, bir lunjini qimirlatdi* (2:296).

Uchta o‘xshatish ketma-ket kelib, kampir siymosini to‘liq gavdalantiradi va o‘quvchiga yengil tabassum baxsh etadi. Bu yerda kinoya mehr bilan qo‘shilib ketgan.

“Muhabbat” hikoyasida esa uzum etaloni salbiy qahramon nutqida keladi: *hatto birovlarning oldida ham uning betini so‘rib tashlangan husayni uzumga o‘xshatar, «bir qop saksovulday g‘ichirlamay-shig‘irlamay o‘l», deb kular edi* (3:314). “So‘rib tashlangan” sifatdoshi etalonni qadrsizlantiradi va o‘xshatishni haqoratga yaqinlashtiradi. O. Sharafiddinov adibning oilaviy hayotidan bir lavhani eslaydi: Kibriyo Qahhorova jahl ustida “Ataman” deganida, adib “nosqovoqdek belimga tugib yursam” deb javob qaytaradi, opa esa “Uzumdek shiramizni so‘rib, po‘stlog‘imizni puflab tashlamoqchi ekansiz-da!” deb kinoya bilan javob beradi; bu ikki ibora vaziyatni yumshatib, ularni yana yarashtirgan [16: 51]. Lavha uzum etalonining jonli nutqda ham kinoya uchun tabiiy manba ekanini ko‘rsatadi.

Belgi etaloni. “Ikki yorti – bir butun” hikoyasi shunday boshlanadi: *Kamolxonov, iltimosiga «xo‘p» degan javobni kutib, savol alomatiday gajak bo‘lib turganida telefon jiringlab qoldi* (1:293–294). Odamning tinish belgisiga o‘xshatilishi, buning ustiga “gajak bo‘lib” turishi uning xushomadgo‘y va ikkiyuzlama ekaniga ishora qiladi. Odam bilan savol alomati, odam bilan sochga nisbatan qo‘llanadigan “gajak” so‘zi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik yo‘q, bu bog‘liqlik assotsiatsiya orqali yuzaga keladi. Odamning egilgan holati, so‘roq belgisining shakli va gajak soch o‘rtasidagi kognitiv o‘xshashlik kutilmagan obraz yaratadi. Bu obraz bir vaqtning o‘zida ham qahramon haqida tasavvur beradi, ham yengil kulgi qo‘zg‘aydi.

1-jadval. Abdulla Qahhor o‘xshatishlarida etalon, aniqlovchi va kulgi turi (tahlil qilingan parchalar asosida)

Etalon	Aniqlovchi so‘z (epitet)	Asar	Kulgi turi
mushuk	muloyim (qadam); o‘lim xavfida qolgan	“Qo‘shchinor chiroqlari”	kinoya; emotsional bo‘yoq
shisha	ag‘darilgan	“Qo‘shchinor chiroqlari”	kinoya
tovuq	–; cho‘chigan	“Hi-hi...”, “Ig‘vogar”	sarkazm; kinoya
tovuq	– (qiyqillatib)	“Qo‘shchinor chiroqlari”, “Og‘riq tishlar”	beg‘araz hazil
bedana	qochgan	“Qo‘shchinor chiroqlari”	beg‘araz hazil
cho‘chqa, bit	och (bit)	“Qo‘shchinor chiroqlari”, “Ikkining biri”	sarkazm
jo‘ja, xo‘roz	sordan qochgan; dakang	“Qo‘shchinor chiroqlari”	samimiy kulgi
xo‘roz	surma ichgan	“Ayajonlarim”	kinoya

Etalon	Aniqlovchi so‘z (epitet)	Asar	Kulgi turi
jo‘ja	tuxumdan yangi chiqqan, oppoqqina, beozor	“Sinchalak”	teskari baho, nafratga o‘tuvchi kinoya
o‘rdak, ayiq, etik	hozirgina pardozlangan sariq (etik)	“Sarob”	portret kinoyasi
olma, qo‘zichoq	sho‘rvada pishgan; to‘ygan	“Kampirlar sim qoqdi”	mehrli yumor
uzum, saksovul	so‘rib tashlangan husayni	“Muhabbat”	haqoratomuz kinoya
savol alomati	gajak bo‘lib	“Ikki yorti – bir butun”	yengil kinoya

Muhokama. Tahlil natijalari o‘xshatishda kinoya tug‘ilishi uchun etalonning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Bir xil etalon (tovuq, jo‘ja, xo‘roz) bir asarda samimiy hazil, boshqasida sarkazm beradi. Farqni uch omil belgilaydi: nutq egasi (muallif, ijobiy yoki salbiy qahramon), subyekt va etalon o‘rtasidagi nomuvofiqlik darajasi hamda etalonga qo‘shilgan epitet. Bu xulosa Isroil, Harding va Tobinning o‘xshatish o‘quvchiga qiyoslash yo‘nalishini beradi, degan fikriga mos keladi [10]: Qahhor matnlarida bu yo‘nalishni aynan epitet belgilaydi. Shuningdek, Veyl va Hao kuzatgan ingliz tilidagi kinoyali o‘xshatishlardan farqli ravishda [14], o‘zbek matnida kinoya ko‘pincha teskari qiyosdan emas, etalonni kutilmagan vaziyatga qo‘yishdan kelib chiqadi (“ag‘darilgan shisha”, “surma ichgan xo‘roz”).

Nutq egasi omili alohida e’tiborga loyiq. Muallif nutqida kelgan o‘xshatishlar (Abdusamad qori, domla Murodxo‘ja, Kamolxonov portretlari) qahramonga muallif munosabatini bevosita bildiradi va kinoya o‘quvchiga muallif bahosi sifatida yetib boradi. Qahramon nutqidagi o‘xshatishlar esa avvalo so‘zlovchining o‘zini tavsiflaydi. Bo‘taboy va uning suhbatdoshi tilidagi “tovuqday qiyqillatib” iborasi ularning soddaligi va o‘zaro yaqinligini ko‘rsatsa, Qalandarov xayolidagi “beozor jo‘ja” uning alamzadaligini, “Muhabbat”dagi salbiy qahramon tilidagi “so‘rib tashlangan husayni uzum” uning qo‘polligini ochadi. Shunday qilib, adib o‘xshatishni nutqiy tavsif vositasi sifatida ham ishlatadi: kim, kimni, nimaga o‘xshatayotgani personajning ma’naviy qiyofasini belgilaydi.

Epitetning vazifasi kuzatilgan misollarda uch xil ko‘rinadi. Birinchidan, u o‘xshatish asosini toraytiradi: “cho‘chigan tovuq” umumiy tovuq emas, qo‘rquv holatidagi tovuqdir. Ikkinchidan, u etalonga baho qo‘shadi: “och bit”, “so‘rib tashlangan uzum”. Uchinchidan, u teskari ma’no hosil qiladi: “oppoqqina, beozor jo‘ja” erkalovchi shakl, lekin nafrat mazmunini tashiydi. Hatchen kinoyaning baholovchi tabiati haqida aytgan fikri [12] aynan shu uchinchi holatda yaqqol tasdiqlanadi. Quyidagi jadvalda o‘xshatish va epitet hamkorligining muallif tomonidan taklif etilayotgan modeli berilgan.

2-jadval. Kinoya ifodasida o‘xshatish va epitet hamkorligi modeli (muallif taklifi)

Mexanizm	Epitetning vazifasi	Natija	Misol
Nomuvofiqlik	subyekt va etalon zidligini ochadi	kinoya	yo‘g‘on gavdasiga nomunosib tarzda mushukday muloyim qadam
Asosni toraytirish	etalonning bir holatini ajratadi	psixologik kinoya	cho‘chigan tovuqday
Baholash	etalonga salbiy belgi qo‘shadi	sarkazm	och bitday abjirlik bilan
Teskari baho	erkalovchi shakl bilan salbiy mazmun beradi	nafratga o‘tuvchi kinoya	oppoqqina, beozor jo‘jaday
Asosni kengaytirish	tashqi belgidan ijtimoiy mavqega o‘tadi	portret kinoyasi	o‘rdakning uch xislati bor
Mehrli yumor	etalonni yumshatadi	tabassum	sho‘rvada pishgan olmadek

Tadqiqotning cheklovlari ham bor. Tahlil tanlangan parchalar bilan chegaralangan, shuning uchun etalon guruhlarining adib ijodidagi umumiy ulushi haqida miqdoriy xulosa chiqarilmadi. Bundan tashqari, asosan -day affiksi bilan hosil qilingan o‘xshatishlar ko‘rildi; go‘yo, xuddi, singari vositalari bilan kelgan kinoyali o‘xshatishlar alohida tadqiqot talab qiladi.

Xulosa. Abdulla Qahhor an’anaviy hayvon, o‘simlik va buyum etalonlarini tayyor holda emas, vaziyatni aniqlovchi so‘z bilan qayta ishlab qo‘llaydi. Kinoya o‘xshatishning o‘zidan emas, subyekt va etalon o‘rtasidagi nomuvofiqlikdan, nutq egasining munosabatidan va etalonga qo‘shilgan epitetdan kelib chiqadi. Bir xil etalon kontekstga qarab samimiy hazil, kinoya yoki sarkazm beradi. Epitet o‘xshatish ichida asosni toraytirish, baholash va teskari ma’no hosil qilish vazifalarini bajaradi. Adibning eng kutilmagan topilmalari (“ag‘darilgan shishaday”, “sho‘rvada pishgan olmadek”, “savol alomatiday gajak bo‘lib”) assotsiativ aloqaga tayanadi va qahramonni bir jumlaning o‘zida tavsiflaydi.

Natijalar asosida quyidagilar tavsiya etiladi: o‘zbek tili o‘xshatishlari lug‘atlariga etalonning epitet bilan kengaygan, kulgi turini ko‘rsatuvchi badiiy shakllarini kiritish; Abdulla Qahhor asarlari tili lug‘ati materiali asosida kinoyali o‘xshatishlarning korpus tahlilini o‘tkazish; oliy ta’limda lingvopoetika va stilistika mashg‘ulotlarida 2-jadvaldagi modeldan badiiy matnni tahlil qilish uchun foydalanish; adib asarlarining boshqa tillarga tarjimalarida etalon va epitetning saqlanish darajasini qiyosiy o‘rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – 320 b.

2. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tili stilistikasidan ocherklar. – Samarqand: SamDU nashri, 1975. – 100 b.

3. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977. – 152 b.

4. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. – Toshkent: Fan, 1976. – 88 b.

5. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda-tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU nashri, 1994. – 105 b.

6. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2006. – 125 b.

7. Mamajonov Z.A. O‘xshatish asosidagi she’riy san’atlarning nazariy tavsifi va tasnifi: filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 48 b.

8. Usmanov F.F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 57 b.

9. Fishelov D. Poetic and Non-Poetic Simile: Structure, Semantics, Rhetoric // Poetics Today. – 1993. – Vol. 14, № 1. – P. 1–23. – DOI: 10.2307/1773138.

10. Israel M., Harding J.R., Tobin V. On Simile // Language, Culture, and Mind / ed. by M. Achard, S. Kemmer. – Stanford: CSLI Publications, 2004. – P. 123–135.

11. Booth W.C. A Rhetoric of Irony. – Chicago: University of Chicago Press, 1974. – 292 p.

12. Hutcheon L. Irony’s Edge: The Theory and Politics of Irony. – London; New York: Routledge, 1994. – 248 p.

13. Gibbs R.W. Irony in Talk Among Friends // Metaphor and Symbol. – 2000. – Vol. 15, № 1–2. – P. 5–27. – DOI: 10.1080/10926488.2000.9678862.

14. Veale T., Hao Y. Detecting Ironic Intent in Creative Comparisons // ECAI 2010: Proceedings of the 19th European Conference on Artificial Intelligence. – Amsterdam: IOS Press, 2010. – P. 765–770. – DOI: 10.3233/978-1-60750-606-5-765.

15. Karimov S., Qarshiyev A., Isroilova G. Abdulla Qahhor asarlari tilining lug‘ati. Alfavitli lug‘at. Ters lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 270 b.

16. Sharafiddinov O. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019. – 576 b.